

Abdullayeva Oytuxta Quvondiqovna

Samarqand viloyati Narpay tumani

64- umumta'lim maktabi

Fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fizika o'qitishda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash va ularni turli tanlovlarga tayyorlash masalalari haqida fikr mulohazalar bayon qilinadi.*

Kalit sozlar: *iqtisodiy, talim, interfaol, bilim, experimental, tadqiqot metodlari, to'garaklar.*

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot bolalar va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy mashg'ulot o'tish ishlariga bo'shatib bermoqda. Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, bola dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi.

Hozirgi kunda bolalar uchun informatsion savodxonlik ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim oldiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq, maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm – fanning so'ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, kasb – hunarli, Ona Vatanga sadoqatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlaydigan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol bolani kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda ta'limning barcha bo'g'inlarida tobora faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishi bolalarning ma'naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib bermoqda. Ta'lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotganligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, ta'lim jara'eni mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, texnologiya, axborot, kompyuter, multimedia, internet, masofali o'qitish, yagona axborot muhiti va shunga o'xshash axborot-kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o'zining samarasini bermoqda. Hozirgi kunda ishlab chiqarish texnologiyalari tezlik bilan rivojlanayotgan bir davrda ta'lim sohasi ham boshqa ishlab chiqarish muassasalari kabi ilmiy, asoslangan yangi pedagogik

texnologiyalar, informatsion ma'lumotlarni qo'llagan holda malakali mutaxassislar faoliyat yuritadigan raqobatbardosh, ilmiy, bilimli kishilarni Vatan ravnaqi uchun tayyorlab beradigan soha sifatida rivojlanib bormoqda. har bir pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi pirovard natijaga erishish yo'llarini bandmaband aniqlash va unga so'zsiz erishishdan iborat. O'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularning mustaqil bilim olishlari uchun zarur bo'ladigan ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat.

O'quvchilarning qiziqishini vujudga keltirishda va ijobiy tashabbuskorligini rivojlantirishda qiziqarli tajribalar, eksperimental masalalar ishlash, yangi mavzuni hayotga bog'lab o'tish, multimediyalar, elektron darsliklardan foydalanish, kinofilmlarni namoyish qilish, qiziqarli kechalar uyushtirish, mustaqil o'qish uchun ilmiy va fantastik adabiyotlar tavsiya etish, tabiatga, ilmiy tadqiqot institutlariga va imkoni bo'lsa GESlarga sayohat tashkil etish hamda o'zbek fizik olimlari bilan uchrashuvlar tashkil etish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni ilmiy tadqiqot metodlari bilan tanishtirish. Odatda, o'quvchilar fizik asboblari bilan tanishadi va u bilan muomalada boladi. Bu va kuzatishlar fizik hodisalarni, qonuniyatlarni, laboratoriya mashg'ulotida hisob-kitobni to'g'ri talqin etishga yordam beradi.

To'garaklar o'quvchilarni milliy qadriyatlarimizni saqlash ruhida tarbiyalash har bir o'qituvchining diqqat markazida turishi kerak. Aqliy tarbiya, politexnik tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya, jismoniy va axloqiy tarbiya maktabda beriladigan tarbiyaning tarkibiy qismidir, shunday ekan: o'quvchilarni mehnat qilishga qiziqtirish, ularda mehnatga havas va hurmat hisini uygotish fizikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Fizika to'garaklarining mazmuni o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan olib boriladigan mustaqil ishlar, tajribalar, masala ishlash, kechalar, kuzatishlar, ilmiy va ilmiy ommabop adabiyotlarni o'qish, o'quv filmlari namoyish qilish, xalq xojaligini turli sohalariga oid ijtimoiy foydali mehnatni tashkil qilish, tabiatni muhofaza qilish, fizik bilimlarini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash, turli maketlar yasashdan iborat.

Fizika o'quv predmeti boyicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar VI-IX sinf oquvchilarini qamrab olgan bolib, ularda tabiat hodisalarining xilma-xilligi, inson va uning texnikadagi rolini o'rganish, fizika asboblari ustida ishlash va tajribalarni kuzatish, qiziqarli tajribalar, eksperimental masalalar ishlash, fizik asboblari yasash, "Fazogirlar kuni", "O'zbekistonni elektirlashtirish", "Radio kuni" ni o'tkazish, adabiyotlar bilan ishlash, ko'rgazmali qurollar, stend va jadvallar yasash kabi ishlar bajariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayèrlash milliy dasturi» Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiètining poydevori.– .: Sharq nashrièt matbaa konserni, 1997. – 31 – 64 b.
3. Mirzaxmedov B., G_ofurov N. va boshqalar. Fizika o_qitish nazariyasi va metodikasi Toshkent-2010
4. Turdiev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy